


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAGISTRANTLARNING
VIII ILMIY ANJUMANI
MATERIALLARI**



Samarqand – 2009



SAMARQAND VILOYATIDA DINIY TURIZM NI RIVOJLANТИРISH ISTIQBOLLARI

M. Usmonov

Mutaxassislik: Iqlisdiy va ijtimoiy neografiya

Diniy turizm xalqlarning o‘z diniga bo‘lgan hummati va e’tiqoti nuqtai nazaridan muqaddas qadamjolar, shaharlar, qabriston va aziz sanalgan maskanlarga ziyorat qilishdi (Soliyev, Usmonov, 2005).

Samarqandni aziz, muqaddas, avliyolar va buyuk insonlar ahadiy qo‘niga topgan joy sifatida e’zozlashadi. Xalqimiz ulug‘ din ulamolari, buyuk kishilar, avliyolar qabrlarini ziyorat etish, o‘tganlar ruhini shod etish maqsadida Samarqand shahri va uning tumanlaridagi ziyoratgohlarga tashrif o‘yurishadi va katta ma’naviy energiyini, ozuqa olishadi. Binobarin, Samarqandda diniy turizmni rivojlantirish uchun Shohizinda, Hazrati Xizr, Ruhobod Amir Temur, Imom Buxoriy, Al-Motrudiy, Xo‘ja Axrori Vali, Hazrati Dovud, G‘ovsul A‘zam, Mahdumi A‘zam Dahbediy va boshqa ko‘plab ziyoratgoh, qadamjolar mavjud bo‘lib, ular sayyoqlikni yuksaltirishga katta imkoniyat yaratadi.

Mustaqillikdan so‘ng respublikamizda, shu jumladan, Samarqand viloyati va uning tumanlarida ko‘plab buyuk avliyo kishilarimiz ruhlarini pok qilish niyatida ko‘plab qadamjolar qayta ta’mirlanib, obodonlashtirilmogda. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan ko‘plab qadamjolar qaytadan tiklandi, obodonlashtirildi va keng xalq omrasiga, ziyoratchilarga qulaylik yaratildi. Olih borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, hozirgi kunda viloyatdagi mavjud diniy ziyoratgohlar diniy turizm nuqtai nazaridan chuqur o‘rgанилмаган bo‘lib, ularni keng ko‘lamli o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Samarqand viloyati turistik obyevtlari tumanlar doirasida quyidagi I-jadvalda o‘z alcsini topgan.

Samarqand viloyati turistik ob‘ektlarining ro‘yxati

I-jadval

Tumanlar	Turistik ob‘ektlar nomi
Samarqand shahri	<p>Universitet xiyobonidagi ming yillik chinor va boshqa daraxtlar, Alisher Navoiy muzeyi, SamDU arxeologik, zoologik muzeylari, bosh markaziy istirohat hiyobon, shifobaxsh chashma buloqlari, «Mo‘jiza» bolalar dam olish maskani, qadimiylar mahallalar va b.</p> <p>Ulug‘bek observatoriysi, Xo‘ja Doniyol payg‘ambar ziyoratgohi, Ishratxona, Qadimiylar Siyob arig‘i, Afrosiyob arxeologik muzeyi va xarobalari, Xazrati Xizir masjidi, Shohizinda masjid, dahmalar majmuasi, B. Bixonim ansamblı, Siyob bozori, Registon ansamblı, Al-Motrudiy maqbarasi, Ruxobod maqbarasi, Amir Temur maqbarasi, Shahar bosh jomey masjidi, Samarqand tarixiy bosh muzeyi, hunarmandlar, nonvoylar mahallalari va h.k.</p> <p>Temir yo‘l istirohat darm olish xiyoboni, «SamKochavto» hamda</p>

Bulung'ur tumani	Chinni zavodlari. Qadimiy Tuyatortar kanali, Fozil Yo'Idosh o'g'li uy muzeyi, xalq etnografik folkler ansamblari, jun yigirish, gilam (mahalliy shevada julbaroq deb ataladi) to'qish, vino ishlab chiqarish va h.k.
Jomboy tumani	Xolvoysi qishlog'idagi ming yillik chinorlar, Zarafshon daryosi va uning Oqdaryo va Qoradaryoga ajralishi, Zarafshon qo'riqxonasi, qadimiy tepaliklar, xalq milliy an'analar, urf-odatlari va h.k.
Ishtixon	Qoradaryo sohillari, Shayxlar qo'rg'oni xalq amaliy san'ati, milliy an'analar, urf odatlari va boshqalar
Kattaqo'rg'on	Kattaqo'rg'on suv ombori, Kattaqo'rg'on patiri, Andoqiy ziyyaratgohi va bulog'i, «cho'kkan tuyu» shaklidagi tabiiy yodgorliklar va milliy an'analar
Narpay	Qo'chqorli ota ziyyaratgohi, Qo'turbuloq dam olish maskani, shifobaxsh butlog'i va avliyo baliqlari, Robijontepa shahar qoldig'i, Dobussiya qal'a xarobalari, Qo'shtepa ikkita tabiiy tosh tepalik maskani va h.l.
Nurobod	Xazrati Dovud ziyyaratgohi va g'ori, Tim qishlog'idagi ming yillik archalar, Karnobcho'l ekolandshaftlari, milliy urf-odatlari, xalq hunarmandchiligi, jumladan jun yigirish, taqir gilam to'qish, kurash, ko'pkari o'yinlari, qadimiy sardobalar, Tepaqul, Sazag'on dam olish maskanlari va b.
Oqdaryo	Mahdumi A'zam Dahbediy ziyyaratgohi, Oqdaryo daryosi sohillari dam olish maskanlari, Miyonqol oroli ekolandshafti, xalq milliy an'analar, milliy kurash o'yinlari.
Payariq	Imom Buxoriy masjid majmuasi va ziyyaratgohi, Navro'ztepa, G'ilmonsoytepa, Oqtepa tabiiy tepaliklar.
Pastdarg'on	Qadirniy Darg'om kanali dam olish maskanlari, milliy ananalar, kurash, ko'pkari o'yirlari va b.
Paxtachi	Zarafshon daryosi sohillari dam olish maskanlari, qadimiy sardobalar
Samarqand	Xo'ja Ahrori vali ziyyaratgohi, Ishratxona ziyyaratgohi, Mironqul, Ohalik dam olish maskanlari, Ohalik tog'i soyliklaridagi xushmanzara dam olish maskanlari, milliy an'analar, yog'och o'ymakorligi, metallga ishlov berish milliy urf odatlari va h.k.
Tayloq	Tayloq ota qo'rg'oni ziyyaratgohi, jomye masjidi, 300 kishilik istirohat bog'i, Bandikushon ziyyaratgohi.
Urgut	Chor chinor, chinorlari va buloqlari, Hovsul A'zam ziyyaratgohi, Xo'jabtol ota, Miqqilloq tosh, Teshiktosh, Qaynar, Shirvog'ota ziyyaratgoh va dam olish turistik maskanlari, «toshqo'y» tabiy xaykali, Bug'jamatosh, Toshkelinchak, Go'rimor tabiiy tosh shakllari, I.ev, Qaynarbuloq, Rohatbuloq buloqlari, Omonqo'ton

	dam olish maskanlari, Eski davon yo'llari, Taxti Qorachabegim saroyi xarobalari va h.k.
Qo'shrabod	Tog' oldi dam olish maskanlari, Qaynar avliyo bulog'i, milliy ananalar, urf odatlari, ko'pkari o'yinlari, jun tilish, urchuq yigirish, gilam to'qish, milliy dostonchilik, baxshichilik, Ergash Jumanbulbul o'g'li dostonchi lik maktabi.

Xulosa qilib ta'kidlash joizki, Samarcand viloyatida Imam Al-Buxoriy maqbarasi, Shohizinda maqbarasi, Xo'ja Axror maqbarasi, Maxdumi A'zami ziyoratgohi, Motrudiy, Guri Amir maqbarasi va ko'plab maqbara va qadamijolai qaytadan tiklanib diniy ziyoratchilar muqaddas maskaniga aylanib borishi o'z navbatida kelajakda diniy turizmni yanada rivojlantirish uchun xiznat qiladi. Buning uchun diniy turizm rivojlangan davlatlar tajribasini keng ko'lamli o'rganish, sayyoqlar oqimini yanada ko'paytirish uchun reklamaga e'tiborni kuchaytirish, infratuzilmani rivojlantirish lozim.

Adabiyotlar

1. Абдумаликов Р. Туризм. – Т.: Уқитувчи, 1978.
2. Абрамов М.М. Самарқанд қабристонлари. - Самарқанд, 1995.
3. Komilova F. Xalqaro turizm bozori. - T.: TDIU, 2001.
4. Nazarova K., Komilova F. O'zbekistonda turizm imkoniyatlarini kengaytirish //O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, №9, 2000.
5. Рахматуллаев А. Самарқанд вилояти туризмини ривожлантириш имкониятлари //Ўзбекистонда география, экология ва туризм муаммолари. - Самарқанд, 1995.
6. Soliyev A, Usmonov M.R. Samarqand turizmi rivojlanishida o'rta va kichik korxonalarining ahamiyati //Kichik va o'rta biznesda menejment inuammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materialari. - Samarqand, 2002 .

Ilmiy rahbar dots. N. Mamatqulov

KATION-ANION POLIMETIN BO'YOQLARINING SPEKTRAL-LYUMINESSENT XOSSALARINI ERITMALarda O'RGANISH

M. Husenov

Mutaxassislik: Lazer fizikasi

Polimetin bo'yoqlari polimetin zanjiriga (-SN=) xinolin, naftalin, indolin guruuhlarini kiritish yordamida hosil qilinadi [1]. Ular san texnikasining turli sohalarida ishlatalib kelinmoqda. Masalan, bo'yoqlardan tayyorlangan eritma optik kvant generatorlarida, ya'ni lazerlarda aktiv modda sifatida, generasiya sohasini kengaytirish, passiv to'siq sifatida (zatvor), fotografiyada sinsiblizator sifatida, yengil sanoatda polimer tolalarni bo'yashda, keyingi yillarda fotoxrom materiallar sifatida

